O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QASHQADARYO VILOYATI HOKIMINING

Q A R O R I

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi, 1-uy. Faks: (+99875)221-12-88, qashqadaryo@exat.uz

2022 - yil 25 - avgust 721-4-0-Q/22 Qashqadaryo viloyati hokimligi

Sel suvlaridan zarar ko‘rgan avtomobil va piyodalar o‘tish ko‘priklarini tiklash bilan bog‘liq xarajatlarga mablag‘ ajratish to‘g‘risida

Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2022-yil 23-avgustdagi VI-50-129-4-0-K/22-son qaror ijrosini ta’minlash maqsadida, viloyat hokimining o‘rinbosari A.Eshonqulovning 2022-yil 6-iyuldagi murojaat xatiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Viloyat hokimligi Moliya bosh boshqarmasi (Yusupov), viloyat mahalliy budjetning 2022-yil II-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi hisobidan, sel suvlaridan zarar ko‘rgan avtomobil va piyodalar o‘tish ko‘priklarini tiklash bilan bog‘liq xarajatlar uchun Dehqonobod tuman hokimligi budjetiga 5,0 (besh) mlrd.so‘m mablag‘ ajratsin.

2. Viloyat G‘aznachilik boshqarmasi (Ahmedov), Dehqonobod tuman hokimligi (Alikulov), mazkur qarorga asosan ajratilgan mablag‘larni to‘lov intizomiga rioya etgan holda ishlatilishini ta’minlasin.

3. Viloyat Davlat moliyaviy nazorat boshqarmasi boshlig‘i (Turumov), ajratilayotgan mablag‘ning maqsadli va samarali ishlatilishi ustidan nazorat o‘rnatsin.

4. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari A.Qodirov zimmasiga yuklatilsin.

Viloyat hokimi **M.Azimov**